

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I**

2026-yil “06” yanvar

1-son

Toshkent shahri

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida
korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada
takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmoni
ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida
korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish
to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmonida belgilangan tegishli
vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida
korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish
to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmoni ma’lumot va ijro uchun
qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida
korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish
to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmonida belgilangan vazifalarning
ijrosini ta’minlash yuzasidan nazorat-reja ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari
va tizim tashkilotlari rahbarlari mazkur buyruqqa muvofiq yuklatilgan topshiriqlarning
to‘liq, sifatli va samarali bajarilishi ta’minlasin.


4. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Vazirning birinchi
o‘rinbosari**



S. Radjabov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
2026-yil 06-yanvardagi 1-son buyrug'iga
ilova



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash yuzasidan
NAZORAT-REJA**

T/r	Amalga oshirilishi nazarda tutilgan tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	4-band, “b”-kichik band: Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari va ular xodimlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligi Agentlik bilan kelishilgan holda ish beruvchi tomonidan tasdiqlanadi.	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari va ular xodimlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishgan holda tasdiqlash. Bunda, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari va ular xodimlarining vazifalari, funksiyalari va javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PQ147-son qarori 9-bandi (b, “i”-kichik bandi)da nazarda tutilgan	Alohida rejaga muvofiq	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (Sh.Yadgarov), Innovatsion rivojlanish agentligi (A.Norov), Bilim va malakalarni baholash agentligi (M.Karimov), Oliy attestatsiya komissiyasi (A.Yusupov)

T/r	Amalga oshirilishi nazarda tutilgan tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlangandan so'ng tasdiqlanishi nazarda tutilsin.		
2.	4-band, “g” (i)-kichik band: Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) qo'llanilmaydi. Bunda, samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalar tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etiladi.	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining rahbar va xodimlari samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan ustamalarni tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda to'lanishini ta'minlash.	Har oy	Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (F.G'aybullayev), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (K.Artikov), Innovatsion rivojlanish agentligi (A.Norov), Bilim va malakalarni baholash agentligi (M.Karimov), Oliy attestatsiya komissiyasi (A.Yusupov)
3.	10-band, “g”-kichik band: Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari tizimdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining	Tizimdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni har chorakda Agentlikka taqdim etib borilishini ta'minlash.	Har chorak	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (Sh.Yadgarov), Innovatsion rivojlanish agentligi (A.Norov),

T/r	Amalga oshirilishi nazarda tutilgan tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas’ul ijrochilar
	va yo‘nalishlari haqida ma’lumot hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni har chorakda Agentlikka taqdim etib boradi.			Bilim va malakalarni baholash agentligi (M.Karimov), Oliy attestatsiya komissiyasi (A.Yusupov)
4.	16-band: Belgilansinki, respublika va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarni “E-qaror” elektron tizimida asossiz e’lon qilmaslik, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish deb hisoblanadi hamda tegishli javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.	1. Qabul qilingan tegishli hujjatlarni “E-qaror” elektron tizimiga joylashtirilishini ta’minlash. 2. Qabul qilingan tegishli hujjatlarni “E-qaror” elektron tizimiga joylashtirilganligini nazorat qilish.	Doimiy Har oyda	Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hamda vazirlik huzuridagi tizim tashkilotlari rahbarlari Devonxona (Z.Aripova)